O‘ZBEKISTON VA YAPONIYA DIPLOMATIK ALOQALARINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI

Hikmatova Komila
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
“Iqtisodiyot” yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi keng qamrovli munosabatlarning rivojlanishida xalq diplomatiyasining tutgan o‘rni hamda uning ahamiyatli jihatlari ilmiy jihatdan tahlil etiladi. Shuningdek, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga munosib hissa qo‘shgan olimlar, turli soha mutaxassislari hamda davlat arboblarining faoliyati va tashabbuslari yoritiladi. Maqolada madaniy aloqalar, ijtimoiy tashabbuslar va o‘zaro ishonchni mustahkamlovchi omillar ikki tomonlama munosabatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Madaniy diplomatiya, “Hiroshima tinchlik toshi”, JICA, OISCA, MOFA, “Markaziy Osiyo + Yaponiya” .

KIRISh O‘zbekiston o‘z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o‘zaro manfaatli va konstruktiv tashqi siyosat yuritib kelmoqda. Xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda, ayniqsa davlatlar o‘rtasida o‘zaro ishonch va yaqinlikni mustahkamlashda xalq diplomatiyasi muhim o‘rin tutadi. Xususan, rivojlangan davlatlardan biri bo‘lgan Yaponiya bilan munosabatlarning izchil kengayib borishi ikki tomonlama hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilganidan dalolat beradi. O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi diplomatik aloqalar 1992-yilda o‘rnatilgan bo‘lib, bugungi kunda hamkorlik siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, energetika hamda ta’lim sohalarida izchil rivojlanib bormoqda[1]. Bu jarayon ikki davlat tashqi siyosatining uyg‘unlashuvi, iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda madaniy-gumanitar sohalardagi hamkorlikning mustahkamlanishi bilan tavsiflanadi. 2025-yil avgust oyida Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Takeshi Ivayaning O‘zbekistonga rasmiy tashrifi aynan shu tendensiyaning mantiqiy davomidir[2]. Ushbu tashrif O‘zbekiston mustaqilligining 34 yilligi arafasida amalga oshirilgani bois, uning ramziy va siyosiy ahamiyati alohida e’tiborga molikdir. Tashrif doirasida ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy do‘stlik va o‘zaro ishonchni yanada mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish orqali iqtisodiy modernizatsiyani qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ekologik barqarorlikni ta’minlash yo‘nalishlarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi[3]. Qolaversa, Yaponiyaning “yumshoq kuch” siyosati doirasida ta’lim, madaniyat va ilmiy almashinuv dasturlari ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirishda muhim omil bo‘lib qolmoqda.

2025-yilgi tashrif nafaqat ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash, balki “Markaziy Osiyo+Yaponiya” mintaqaviy formatidagi hamkorlikni rivojlantirish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etdi. Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati ikki asosiy yo‘nalishga tayanadi: birinchisi - alohida davlatlar bilan mustahkam sheriklikni rivojlantirish, ikkinchisi - mintaqaviy barqarorlikni qo‘llab-quvvatlash orqali diplomatik faollikni kengaytirish[4]. Tashrif doirasida Samarqand va Toshkent shaharlarida turli tadbirlar tashkil etildi. Samarqandda mahalliy hokimiyat vakillari bilan uchrashuvlar, sanoat obyektlariga tashriflar hamda JICA loyihalari bilan tanishuv bo‘lib o‘tdi. Toshkentda esa yapon madaniy merosiga oid yodgorliklarga tashrif, memorial tadbirlar, “yashil transformatsiya” va iqtisodiy hamkorlikka oid muzokaralar o‘tkazildi. Mazkur maqolada

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik rivojida diplomatik munosabatlar shakillanishining o‘rni va ahamiyati yanada batafsil tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR O‘zbekiston va Yaponiya diplomatik aloqalarining shakllanish bosqichlarini tahlil qilish jarayonida ilmiy metodologik yondashuv sifatida turli hujjatli manbalar, rasmiy bayonotlar, matbuot relizlari hamda ommaviy axborot vositalarida e’lon qilingan xabarlar asos qilib olindi. Tadqiqot siyosiy fanlar va xalqaro munosabatlar nazariyasi doirasida shakllangan metodlarga tayangan holda olib borildi.

Ushbu soha bo‘yicha nafaqat mahalliy balki, boshqa sharq olimlari ham tadqiqot olib borganlar. Jumladan, O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi gumanitar aloqalar rivojida ilmiy doira vakillari muhim o‘rin tutib kelmoqda. Xususan, Ikuo Hiroyama, Kyudzo Kato, Osaki Sigekatsu, Hidaka Shinsuke hamda Jalil Sultonov kabi olim va jamoat arboblarining faoliyati ikki xalq o‘rtasidagi o‘zaro anglashuvni mustahkamlashga xizmat qilgan. Ayniqsa, yapon arxeologi, etnograf va tarjimon Kyudzo Kato O‘zbekiston tarixini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan olimlardan biri hisoblanadi. U Kushon imperiyasi davriga oid buddaviylik yodgorliklarini o‘rganish orqali Markaziy Osiyo hududining qadimiy sivilizatsiyalarini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qilgan. 1998-yildan boshlab Qoratepa, Fayoztepa hamda Dalvarzintepa hududlarida olib borilgan o‘zbek-yapon qo‘shma arxeologik ekspeditsiyalari muhim ilmiy natijalarni bergan.[9] Olimning “Ipak yo‘li chorrahasida”, “Yevroosiyo sivilizatsiyasi bo‘ylab sayohat”, “Dalvarzintepa shahristoni” kabi asarlari Markaziy Osiyo tarixini o‘rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi. Kyudzo Kato O‘zbekistonda “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlangan hamda Termiz shahrining faxriy fuqarosi unvoniga sazovor bo‘lgan[15].

NATIJALAR

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi munosabatlar quyidagi asosiy yo‘nalishlarda shakllanib, sezilarli natijalarga erishilgan:[8]

1-jadval

Soha	Yutuqlar	Izoh
Siyosat	Oliy darajadagi tashriflar: I. Karimov (1994, 2003), Sh. Mirziyoyev (2019)	O‘zaro ishonchni mustahkamlash, strategik sheriklik
Iqtisodiyot	Navoiy IES rekonstruksiyasi, avtomobil yo‘llari, energetika sohasida investitsiyalar	Yaponiya 2 milliard AQSh dollardan ortiq kredit va grant ajratgan (JICA, 2022)
Madaniyat	Yapon bog‘lari, madaniyat kunlari, yapon tili markazlari	Madaniy yaqinlik va xalqaro do‘stlik
Ta’lim	Talabalar almashinuvi, o‘qituvchilar malaka oshirish dasturlari	JDS, MEXT, JICA grantlari orqali o‘zbek yoshlari Yaponiyada tahsil olmoqda

O‘zbekistonlik siyosatshunos N. Komilov bu haqida shunday yozadi: “Yaponiyaning O‘zbekiston bilan aloqalari gumanitar yondashuv asosida qurilgan bo‘lib, inson salohiyatiga sarmoya kiritish bilan ajralib turadi” [9].

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar izchil rivojlanib, bugungi kunda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilgani kuzatildi. Ta’kidlash joizki, 2000-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik yanada kengayib, strategik sheriklik bosqichiga o‘tdi. Ayniqsa, siyosiy muloqotning faollashuvi, iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarning kengayishi hamda inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslar ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yangi darajaga olib chiqdi. 2010-yillardan boshlab Yaponiya O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, infratuzilmani rivojlantirish, sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori texnologiyalarni joriy etish yo‘nalishlarida muhim hamkorlardan biri sifatida maydonga chiqdi. Bu jarayonda Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) tomonidan transport, energetika, sog‘liqni saqlash, suv ta’minoti, qishloq xo‘jaligi va ta’lim sohalarida ko‘plab grant va kredit loyihalari amalga oshirildi[3]. Yaponiya hukumati O‘zbekiston bilan hamkorlikda barqaror iqtisodiy o‘sish, adolatli jamiyat qurish va samarali boshqaruv tizimini rivojlantirishni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilagan. Muhokama jarayonida ushbu ikki davlat aloqalarini uch bosqichga bo‘lib ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yilda Yaponiyaga amalga oshirgan rasmiy tashrifi[1] ikki tomonlama munosabatlar tarixida muhim bosqich bo‘lgan desak mubolag‘ bo‘lmaydi, boisi ushbu tashrif davomida strategik sheriklikni yanada mustahkamlashga qaratilgan qator bitim va kelishuvlar imzolandi hamda investitsiya, innovatsiya, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim va sanoat sohalarida istiqbolli loyihalar belgilab olindi. Mazkur tashrif O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqdi va uzoq muddatli rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab berdi.

2020–2023-yillar davomida ham ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalar izchil rivojlandi.[3] Savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalari asosiy yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoldi. Shu bilan birga, “Markaziy Osiyo + Yaponiya”[3] muloqot platformasi mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim mexanizm sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Mazkur format Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida siyosiy ishonchni mustahkamlash, investitsion muhitni yaxshilash hamda mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan.

2024-2026-yillarda O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik yanada jadallashib, innovatsiya, ekologiya, transport kommunikatsiyalari, “yashil iqtisodiyot”, sog‘liqni saqlash va ta’lim sohalarida yangi loyihalar ishlab chiqildi. 2025-yilda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi doirasida ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar “kengaytirilgan strategik sheriklik” darajasiga ko‘tarildi. Tashrif davomida savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport, qishloq xo‘jaligi, suv resurslari, urbanizatsiya, turizm va ekologiya sohalarida yirik kelishuvlar imzolandi. Mazkur tashrif yakunlariga ko‘ra umumiy qiymati 12 milliard dollardan ortiq bo‘lgan qo‘shma loyihalar bo‘yicha kelishuvlarga erishilgani[14] ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy sheriklikning yuqori darajada ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Yaponiya moliyaviy institutlari va yirik kompaniyalari ishtirokida energetika, neft-kimyo sanoati, infratuzilma, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash va maxsus iqtisodiy zonalarni rivojlantirish bo‘yicha istiqbolli loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ta’kidlash kerakki, bugungi kunda O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlik ko‘p tomonlama ahamiyatli bo‘lib, jumladan, siyosiy muloqot, iqtisodiy sheriklik, ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar, ekologik barqarorlik hamda madaniy almashinuv kabi

yo‘nalishlarni qamrab olmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro ishonch, uzoq muddatli manfaatlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan, kelgusida ham strategik sheriklikni yanada mustahkamlash uchun keng imkoniyatlar mavjud. Madaniy diplomatiya rivojida mashhur rassom Ikuo Hiroyamaning xizmatlari ham alohida e’tiborga loyiq. Uning tashabbusi bilan tashkil etilgan O‘zbekiston-Yaponiya xalqaro ilmiy-madaniy “Madaniyat karvonsaroyi” ipak yo‘li merosini o‘rganish va targ‘ib qilish, madaniyatlar almashinuvni kengaytirish hamda ilmiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ushbu maskan nafaqat muzey, balki ilmiy-madaniy platforma sifatida faoliyat yuritadi. Karvonsaroy hududida joylashgan “Hiroshima tinchlik toshi” esa tinchlik, o‘zaro hurmat va xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik ramzi sifatida e’tirof etiladi. Ta’lim va ilmiy hamkorlik yo‘nalishida ham sezilarli natijalarga bosqichma-bosqich erishilmoqda. Jumladan, yapon olimi Hidaka Shinsuke tomonidan yaratilgan “New Express+O‘zbek tili” o‘quv qo‘llanmasi Yaponiyada o‘zbek tiliga bo‘lgan qiziqish ortib borayotganini ko‘rsatadi[8]. Ushbu qo‘llanma O‘zbekistonning boy tarixiy merosi, ipak yo‘lidagi muhim o‘rni hamda zamonaviy iqtisodiy salohiyati haqida tasavvur hosil qilishga xizmat qilmoqda. So‘nggi yillarda universitetlararo hamkorlik, akademik almashinuv dasturlari hamda qo‘shma ilmiy tadqiqotlar sonining ortib borayotgani ilmiy diplomatiyaning mustahkamlanib borayotganini ko‘rsatadi. Yaponiyaning nodavlat tashkilotlari ham O‘zbekistonda ijtimoiy va ekologik loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Xususan, OISCA tashkiloti tomonidan Orolbo‘yi hududida ekologik muhitni tiklashga qaratilgan keng ko‘lamli tashabbuslar ilgari surilgan[12]. Orol dengizining qurigan tubini ko‘kalamzorlashtirish loyihasi mintaqadagi ekologik muammolarni yumshatish bilan bir qatorda, barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda. Bunday tashabbuslar ekologik diplomatiya ham ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlikning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylanib borayotganini ko‘rsatadi[11].

O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlashga hissa qo‘shgan bir qator siyosatchilar, olimlar va jamoat arboblari Yaponiya hukumati tomonidan faxriy yorliq va ordenlar bilan taqdirlangan[15]. Jumladan, Sodiq Safoyev, Abdulaziz Komilov, Aziz Abduhakimov kabi davlat arboblarining mukofotlanishi ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklik darajasi yuqori ekanini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, madaniyat, sport va ilm-fan sohalarida faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning e’tirof etilishi xalq diplomatiyasining amaliy natijalarini yaqqol namoyon etadi.

Hamkorlik nafaqat bir yo‘nalishda balki, hududlararo hamkorlik aloqalari ham rivojlanib bormoqda. Qayd etish kerakki, Aichi prefekturasi va Nagoya shahri bilan aloqalarning mustahkamlanishi, Nagoyada O‘zbekiston faxriy konsulligining ochilishi ikki tomonlama hamkorlikning institutsional asoslarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Toshkent–Nagoya, Samarqand–Nara hamda Rishton–Maydzuru shaharlari o‘rtasidagi hamkorlik aloqalari madaniy almashinuv, turizm, ta’lim va investitsiya sohalarida yangi imkoniyatlar yaratmoqda[5].

XULOSA O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘tgan yillar davomida izchil rivojlanib, bugungi kunda ko‘p qirrali strategik sheriklik darajasiga yetdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy va ijtimoiy yo‘nalishlarni qamrab olgan holda alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, Yaponiya tomonidan amalga oshirilayotgan rasmiy rivojlanish yordami (ODA), JICA loyihalari, investitsiya dasturlari hamda ta’lim va ilmiy almashinuv tashabbuslari O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy global jarayonlar sharoitida ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik innovatsiyalar, ekologiya, yashil iqtisodiyot, raqamlashtirish, transport va logistika kabi istiqbolli yo‘nalishlarda yanada kengayib bormoqda. Hududlararo hamkorlik, faxriy konsulliklar faoliyati, turizm va akademik almashinuv dasturlari hamkorlikning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Muxtasar qilganda, O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat, ishonch va umumiy manfaatlarga asoslangan bo‘lib, kelgusida ham ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada chuqurlashtirish, yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish hamda barqaror rivojlanishga erishish uchun keng imkoniyatlar mavjudligi aniqlandi. Mazkur hamkorlik kelgusi yillarda nafaqat ikki davlat, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasida barqaror taraqqiyotni ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti - O‘zbekiston va Yaponiya o‘rtasidagi hamkorlikka oid rasmiy ma’lumotlar. https://president.uz
2. MOFA Japan. “Foreign Minister Iwaya Visits Uzbekistan (Overview)”. Retrieved from https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/page4e_001235_00001.html
3. Waya, T. (2025). «Япония неизменно остаётся надёжным партнёром и другом Узбекистана». Ministry of Foreign Affairs of Japan Retrieved from https://www.mofa.go.jp/files/100895257.pdf
4. Ministry of Foreign Affairs of Japan. (2025b, August 26). Foreign Minister Iwaya’s Visit to Samarkand. Retrieved from https://www.mofa.go.jp/erp/ca_c/uz/pageite_000001_01231.html
5. Embassy of Japan in Uzbekistan. Japan–Uzbekistan Relations. Retrieved from https://www.uz.emb-japan.go.jp
6. JICA (Japan International Cooperation Agency). Uzbekistan overview and cooperation projects. Retrieved from https://www.jica.go.jp
7. Suyunova B.S.Q. O‘zbekiston va Yaponiya hamkorligi rivojida xalq diplomatiyasining o‘rni - Oriental Journal of Social Sciences. - 2024.
8. Toshboyeva D.A. Relations between Uzbekistan and Japan: political and economic cooperation analysis. - 2023.
9. Komilov N. 2015. 102-bet
10. Kato K. Dalvarzintepa shahristoni. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixiga oid tadqiqotlar.
11. Hiroyama I. Ipak yo‘li madaniy merosini o‘rganish bo‘yicha ilmiy ishlari.
12. OISCA International Organization. Environmental projects in Uzbekistan (Aral Sea afforestation program). Retrieved from https://www.oisca.org
13. Central Asia + Japan Dialogue official materials.
14. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma’lumotlari - Yaponiya investitsiyalari bo‘yicha hisobotlar.
15. Oriental Journal of Social Sciences. Uzbekistan–Japan relations articles collection. Retrieved from https://supportscience.uz
16. Sharq jurnali elektron ilmiy nashri. O‘zbekiston–Yaponiya ilmiy va madaniy aloqalari bo‘yicha maqolalar. Retrieved from https://sharqjurnali.uz